

**“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI”
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB**

**“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATBning
suvni tejash bo‘yicha Tartibi**

TOSHKENT-2024 yil

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “29” martda
597-son bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Kuzatuv kengashining
2024-yil “29” martdagi
168-sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning suvni tejash bo‘yicha Tartibi

I. Umumiy qoidalar

1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda suvni tejash bo‘yicha Tartib (keyingi o‘rinlarda Tartib) “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning (keyingi o‘rinlarda – Bank) suv resurslarini tejamkor va oqilona iste‘mol qilish sohasidagi faoliyatining tamoyillarini va yo‘nalishlarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi.

2. Ushbu Tartib Bankning suvni tejash sohasida pozitsiyasini va siyosatini belgilash uchun mo‘ljallangan asosiy hujjat bo‘lib hisoblanadi.

3. Ushbu Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi 4477-sonli “2019 – 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qaroriga va Bankning ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish Siyosatiga muvofiq ishlab chiqilgan.

4. Ushbu Tartib Bankning barcha bo‘linmalarida va sho‘ba kompaniyalarida suv iste‘molining tejalishiga va iqtisod qilinishiga ko‘maklashadi.

5. Ushbu Tartib bilan belgilangan suv iste‘moli jadalligining asosiy tamoyillarini amalga oshirish maqsadida, Bankda suv iste‘molini qisqartirish faoliyatini belgilab beruvchi va ushbu Tartibga zid bo‘lmagan ichki me‘yoriy va buyruq hujjatlari ishlab chiqiladi.

6. Suvni iste‘mol qilish jadalligi sohasidagi barcha ichki me‘yoriy hujjatlar, buyruq va boshqa hujjatlar ushbu Tartib bilan mustahkamlangan maqsad va vazifalarga erishishga, hamda suvni iste‘mol qilish jadalligi sohasidagi asosiy tamoyillarini amalga oshirishga qaratiladi.

7. Bankda ushbu Tartibni rivojlantirish uchun, suvni iste‘mol qilish jadalligini qisqartirishga ko‘maklashadigan yo‘nalishlar ham qabul qilinishi va amalga kiritilishi mumkin.

II. Tartibning maqsad va vazifalari

8. Bank 2015-yilda barqaror rivojlanish maqsadlari (keyingi o‘rinlarda BRM) sohasida qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining “A/RES/70/1” Rezolyutsiyasiga muvofiq, iqtisodiyotning barcha sohalari va sektorlari bilan o‘zaro munosabati tufayli

barqaror rivojlanishga muhim hissa kiritadi. Bank o'z rivojlanish strategiyasiga va suvni tejash bo'yicha Tartibiga muvofiq holda, BRM – Toza suv va sanitariya (BRM 6) maqsadining amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

Bankning suvni iste'mol qilish jadalligi sohasida maqsadlari va vazifalari – suvni iste'mol qilishni qisqartirish bo'yicha yillik yutuqlar bo'lib, ular ushbu hujjat ishlashining samarasini baholash uchun asos bo'lib xizmat qilish;

Bankning suvni iste'mol qilish jadalligi sohasida faoliyatining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish;

suvni iste'mol qilish jadalligi sohasida qabul qilingan xalqaro tamoyillarga va standartlarga rioya qilish;

suvni iste'mol qilish jadalligi va suvdan foydalanish samaradorligi o'zgarishining dinamikasi sohasida hisobotni joriy qilish.

9. Bank mas'ul biznes sifatida, BMTning Global shartnomasi tamoyillarini qo'llab-quvvatlash uchun o'z strategiyasida chuchuk suv ekotizimlaridan foydalanish madaniyatini joriy qiladi.

10. Bank, mas'ul moliyaviy tuzilma sifatida, o'z strategiyasida "BMTning 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun barqaror rivojlanish maqsadlari"ning o'nta asosiy tamoyiliga tayanadi, uning ichida, shu jumladan, suvdan foydalanish samaradorligi va suv resurslariga yuklama darajasi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishga qaratilgan maqsadli vazifa (BRM 6.4.) bor.

11. Bank resurslarni tejashga rioya qilish va ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida moliyalashtiriladigan loyihalarning joriy faoliyatida va ko'chmas mulk ob'ektlarida suv resurslaridan foydalanish uchun mas'ul bo'ladi.

12. Bankning barcha binolari va inshootlarini loyihalashtirishda, rekonstruktsiya qilish va qurishda suvni tejaydigan texnologiyalarni majburiy o'rnatish ta'minlanadi.

13. Bank suv yetishmasligi muammolarini hal etish va suv resurslari yetishmasligidan aziyat chekayotgan insonlar sonining ancha qisqarishi muammolarini hal etish uchun, chuchuk suvni barqaror olish va uzatishni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni ta'minlaydi.

14. Bank suv yetishmasligiga qarshi kurashish, uning sifatini yaxshilash va ekologik barqarorlikni oshirish sohasida ko'maklashadi.

15. Bank qishloq xo'jaligi sektorida institutsional rivojlanishga, moliyaviy barqarorlikka hamda ikkilamchi resurslar tizimi rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan institutlar va kompaniyalarni samarali boshqarishga, shuningdek hususiy sektorning ishtirok etishiga ko'maklashadi. Bular suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun zarur bo'lgan siyosiy asosni yaratishga yordam beradi.

16. Bank suv resurslaridan foydalanishdagi mintaqaviy hamkorlikka, hamda toza energiya manbalaridan chegaralararo foydalanish imkonini oshirish uchun suv tizimlarining o'zaro bog'liqligiga ko'maklashadi.

17. Bank resurslarni tejashni rivojlantirish yuzasidan moliyani, bilimlarni, hamkorlikni va o'z yondashuvini birlashtirishda davom etadi.

18. Bank barqaror, ishonchli va tejamkor suv ta'minotining muammosiga alohida e'tibor qaratadi.

19. Bank tomonidan suvni iste'mol qilish jadalligi sohasida quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan:

doimiy tahlil qilib borish hamda suvdan foydalanishni optimallashtirish bo'yicha maqsad va vazifalarni izchil dolzarblashtirish;

suv resurslaridan samarali foydalanish va sarfini nazorat qilishning innovatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga Bankning raqobatbardoshligini oshirish;

Bank faoliyatining suvni tejaydigan tizimi haqida ochiq xabardor etish;

suv ekotizimi muammosiga kuchaytirilgan e'tibor qaratish;

suvni tejash natijalariga yo'naltirilgan ishonchli va mo'ljalli operatsion tartibni ishlab chiqish;

suvni iste'mol qilish jadalligi tamoyillarini joriy qilish, ushbu sohada mijozlarni suvni iste'mol qilish jadalligi tamoyillarini joriy etishga rag'batlantiruvchi maslahat xizmatlarini ko'rsatish;

Bankning tashqi va ichki siyosatining suv resurslariga salbiy ta'sirini minimallashtirish;

«yashil» investitsiya kiritish hamda suv resurslaridan samarali foydalanish va uning sarfini nazorat qilish, ekologik vaziyat yaxshilanishiga ko'maklashuvchi loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish;

suv tejashga va suvdan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

suvdan foydalanishni boshqarish tizimini barqaror rivojlantirish uchun, ushbu Nizomning talablarini hisobga olgan tashkiliy jarayonlarni ishlab chiqish va ularni Bankning biznes-jarayonlariga joriy etilishini ta'minlash;

Bankning suvdan foydalanishni boshqarish tizimining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi PQ-343-sonli "Ichimlik suvi ta'minoti va oqava suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida"gi Qarori tamoyillariga va talablariga muvofiq ishlashini amalga oshirish, uning uzluksiz yaxshilanishiga erishish;

suvdan foydalanish va suvni tejashni boshqarish tizimini doimiy yaxshilash uchun, suvdan foydalanishni rejalashtirish asosida maqsad va vazifalarni joriy etish;

moliyalashtirish ob'ektlarini muntazam monitoring qilish, ehtimoliy oqibatlarni, shu jumladan suvni tejashga ta'sir etuvchi ekologik omillar bilan bog'liq bo'lgan oqibatlarni oldini olish va bartaraf etish;

Bank mijozlarini va pudratchilarini Bankda suvni tejashni boshqarish tizimining ishlashi haqida xabardor etish;

Bank xodimlarni va manfaatdor tomonlarni ushbu Tartib mazmuni yuzasidan xabardor etish;

ushbu Tartibni axborot va resurslar jihatidan qo'llab-quvvatlashni, uni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan miqdorda amalga oshirish;

tashkilotning barcha darajalarida ushbu Tartib va uning maqsadlari haqida xabardorlikni oshirish, suv resurslarini oqilona sarflashdan va tejashdan manfaatdorlikni oshirish, Bank xodimlarining suvni tejash va energetik samaradorlik sohasidagi, suv resurslarining iste'moliga ta'sir etuvchi bilimlari darajasini oshirish.

III. Suvni tejash sohasidagi faoliyatining tamoyillari

20. Samaradorlikni tartibga solish va sarflarni iqtisodiy asoslash uchun vositalarning keng ko'lamini qo'llash;

21. Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda suvni tejaydigan moslamalardan ustuvor foydalanish;

22. Bankning ijtimoiy va ekologik mas'uliyat, korporativ boshqaruv va barqaror rivojlanish sohasidagi siyosatining qoidalari va tamoyillariga rioya qilish;

23. Suv resurslarini iste'mol qilish samaradorligi va yo'qotishlarning hisobini yuritishni va ularni nazorat qilishni ta'minlash;

24. Bankning barcha xodimlarini suvdan foydalanishni optimallashtirish faoliyatida ishtirok etishga jalb qilish;

25. Bank xizmatlarini ko'rsatishning sifati va ishonchliligining belgilangan darajasida, suv resurslarini iste'mol qilishni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan choralarni amalga oshirish;

26. "Green banking" departamenti Ma'muriy-xo'jalik departamenti bilan birgalikda, ushbu Tartibni qo'llashni muvofiqlashtirish va uni tizimli amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma hisoblanadi;

27. Suvni tejash maqsadlariga erishish uchun, maslahat jarayonida faol ishtirok etish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish;

28. Manfaatdor tomonlar bilan ochiq va halol o'zaro munosabatda bo'lish, Bank tomonidan qarorlarni qabul qilish jarayonida ularning fikrlarini va manfaatlarini hisobga olish;

29. Bank tomonidan qabul qilingan suvni iste'mol qilish jadalligi sohasidagi qoidalarga, me'yorlarga, standartlarga va majburiyatlarga, hamda Bankning suvni tejash sohasida faoliyatining shaffofligiga va hisobdorligiga rioya qilish.

IV. Suvni tejash sohasida boshqarish tizimi va usullari

30. Ushbu Tartibdan foydalanishning ochiqligini ta'minlash Bank xodimlarini va boshqa manfaatdor shaxslarni belgilangan tartibda xabardor etish, hamda Bankning ichki va tashqi axborot resurslarida bu haqda e'lon qilish orqali amalga oshiriladi.

31. Suvni tejash tamoyillarini joriy qilish uchun kerakli ichki me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi.

V. Suvni tejash sohasidagi asosiy ishtirokchilar

32. Ushbu Tartibning qoidalari Bank strategiyasiga muvofiq holda amalga oshiriladi va barcha Bank xodimlari tomonidan majburiy hisoblanadi. Bankning shu'ba kompaniyalari ham o'z faoliyatida ushbu Tartibning qoidalariga tayanadi.

33. Bank Boshqaruvi Tartibni joriy qilish jarayonini kuzatadi va nazorat funksiyasini amalga oshiradi.

34. Bank Boshqaruvi suvni iste'mol qilish sohasida ustuvor vazifalarni belgilaydi, Bankning tegishli bo'linmalariga yuklatadi.

35. Green banking departamenti suvni iste'mol qilishni amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi, suvni tejash bo'yicha tavsiyalarni beradi, yetakchi "yashil" banklarning xalqaro tajribasiga muvofiq takliflarni beradi, hamda suvni iste'mol qilish jadalligi sohasida o'quv seminarlarini tashkil etadi.

36. Ma'muriy-xo'jalik departamenti Bank va uning tarmoqlaridan foydalanishda, suvni iste'mol qilishni tejash, suv tejaydigan moslamalarni joriy qilish, suvdan foydalanishni qisqartirish bo'yicha choralarni ko'rish uchun vakolatli hisoblanadi.

37. Ushbu Tartib moliyaviy tashkilotlar, Bank hamkorlari va kontragentlari uchun tavsiyaviy hususiyatga ega bo'ladi.

VI. Suvni tejash sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari

38. Bank o'z faoliyatini o'zgartirishga, va samarali boshqarish tizimi bo'lgan «yashil» bankka (Green Bank) aylanishga qaratilgan keng ko'lamli o'zgartirishlarni amalga oshiradi, bunday bank atrof muhitni muhofaza qilishga va resurslardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratadi, shuningdek moliyaviy amaliyotlar shaffofligining hamda jamiyatga, mijozlarga va o'z xodimlariga nisbatan ijtimoiy mas'uliyatning yuksak darajasini ta'minlaydi.

39. Bank o'z faoliyatida resurslarni tejashni rivojlantirish moyilliklariga sodiq bo'ladi, hamda o'z faoliyatini barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq bo'lgan yashil loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiradi.

40. Bank doimiy asosda suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshiradi, shuningdek, ekologik vaziyatni yaxshilashga ko'maklashuvchi loyihalar rivojlanishini moliyalashtiradi va rag'batlantiradi, shu jumladan:

sanoatdagi, hamda aylanma suv ta'minoti hisobiga suv iste'molini kamaytiruvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanuvchi boshqa tarmoqlardagi investitsion loyihalar;

oqava suvlarni tozalash bo'yicha investitsion loyihalar.

41. Xalqaro hisobot standartlariga va tizimlariga rioya qilish bo'yicha hamda sanoatdagi va davlat siyosatidagi tegishli tashabbuslarda ishtirok etish bo'yicha majburiyatlar suv resurslarini tejash iqtisodiyotiga o'tishni osonlashtiradi.

42. Bank suv yetishmasligini anglab yetadi va suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish orqali suv tanazzuli muammolarini hal etishga intiladi.

43. Bank mijozlarga suv resurslaridan foydalanish jadalligini kamaytirishda ishtirok etish imkonini beruvchi, innovatsiyali va samarali pul mablag‘larini kiritish usullarini izlaydi.

44. Bank suvni iste‘mol qilish jadalligi tamoyillarini amalga oshirish sohasida doimiy takomillashtirishga intiladi. Bank suv tejash sohasida barcha manfaatdor shaxslar bilan hamkorlik qilish uchun ochiqdir. Bank har yili tajriba almashish va hamkorlikni yaxshilash maqsadlari uchun sessiyalarni o‘tkazadi, ularda turli amaliy vaziyatlar, shu jumladan suvni iste‘mol qilish jadalligi sohasidagi holatlar muhokama qilinadi.

45. Bank suvni iste‘mol qilish jadalligi sohasida faoliyatga tizimli yondashuvni jalb qiladi va ushbu Tartibda mustahkamlangan yo‘nalishlar va vazifalar tuzilmasida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalishlar, ularning doirasida Bank o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarga erishish uchun faoliyat yuritadigan, suvni iste‘mol qilish jadalligining mavzuiy sohaslarini aks ettiradi.

46. Bank suv resurslarini iste‘mol qilishni kamaytirish, hamda Bankning binolari va inshootlari «yashil» standartlarga muvofiqligini ta‘minlash orqali, atrof muhitga salbiy ta‘sirini minimallashtirishga intiladi.

47. Bank tomonidan kredit portfelida suvni iste‘mol qilishni baholash, qisqartirish va kompensatsiyalash bo‘yicha rejalar amalga oshiriladi, hamda suvdan foydalanishni kamaytirish bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni va loyihalarni joriy qilish uchun moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar taqdim etiladi.

VII. Suvni tejash sohasida hisobot

48. Bank, tijorat siri va sirlarning boshqa turlarini himoya qilish to‘g‘risida hamda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini inobatga olgan holda, ochiqlikka va manfaatdor tomonlarni o‘zining suvni iste‘mol qilish jadalligi sohasidagi faoliyati natijalari haqida xabardor etishni ta‘minlashga intiladi.

49. Suvdan foydalanish sohasidagi hisobotning har yili chiqarilishi ushbu Tartibga muvofiq amalga oshiriladi va ommaviy nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish konsepsiyasi talablariga javob beradi.

50. Bank manfaatdor tomonlarni xabardor etish maqsadida, ushbu Tartibga muvofiq har yili suvni iste‘mol qilish jadalligi sohasida hisobotni tayyorlaydi va chiqaradi, hamda ommaviy nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish konsepsiyasi talablariga javob beradi.

51. Bank monitoring qilish hamda suvni iste‘mol qilish jadalligi sohasida faoliyatning turli jihatlarini va natijalarini ta‘riflaydigan hisobotni tayyorlash muhimligini tushunadi. Hisobot jarayoni tasdiqlangan hisobot standartlariga muvofiq tashkil etiladi.

52. Bank barcha manfaatdor tomonlar ma‘lumotlardan foydalanishi imkonini ta‘minlash uchun, hisobotni Bankning rasmiy saytida e‘lon qiladi.

53. Bank manfaatdor tomonlardan shikoyatlarni, e‘tirozlarni va takliflarni o‘z vaqtida va mas‘ul ravishda ko‘rib chiqish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

54. Ushbu Tartib Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan sanasidan boshlab kuchga kiradi.

55. Bank xodimlari va mijozlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.